MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘ZBEK VA KOREYS XALQ EPOSIDA ALPNING G‘OYIBONA TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ O‘XSHASH MOTIVLAR

Oygul Axmedova,
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professori,
filologiya fanlari nomzodi
oygulaxmedova@mail.ru

Annotatsiya. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi an’analari va koreys folklori o‘rtasida chuqur tarixiy-madaniy aloqadorlik mavjud. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” hamda koreys xalqining “Jumong” dostonlaridagi qahramonning g‘ayrioddiy tug‘ilishi bilan bog‘liq o‘xshash motivlar misolida ikki xalq og‘zaki ijodi namunalari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Go‘ro‘g‘li, Jumong, g‘ayrioddiy tug‘ilish, kult, Quyosh, epik an’ana, epos, baxshi.*

Аннотация. *Между традициями узбекского устного народного творчества и корейским фольклором существует глубокая историко-культурная связь. В данной статье на основе сравнительного анализа сходных мотивов необычного рождения героя в эпосах «Рождение Гёроглы» и « Жумонг» рассматриваются особенности устного народного творчества двух народов.*

Ключевые слова: *Гёроглы, Жумонг, необычное рождение, культ, Солнце, эпическая традиция, эпос, бахши.*

Abstract. *There is a deep connection between the traditions of Uzbek folk oral art and Korean folklore. In this article, we will try to study the examples of oral art of the two peoples, using the example of similar motifs related to the absent birth of the hero in the epics "The Birth of Goroglu" and "Jumong".*

Keywords: *Goroglu, Jumong, extraterrestrial birth, cult, Sun, epic tradition, epic, bakhshi.*

O‘zbekiston va Koreya davlatning madaniyati, adabiyoti, san’ati va xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos o‘xshash va mushtarak tomonlari mavjudki, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish o‘zbek va koreys xalqlari madaniyatini yanada chuqquroq tahlil qilishni taqazo etadi.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi an’analari bilan Koreya folklori orasida chuqur bog‘liqlik mavjud. Biz ushbu maqolamizda ikki xalqning og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilish” hamda “Jumo‘ng” dostonlaridagi qahramonning g‘oyibona tug‘ilishi bilan bog‘liq o‘xshash motivlar misolida o‘rganishga harakat qilamiz.

“Jumo‘ng” asari Koreya xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimiy namunalaridan biri bo‘lib, mifologik afsona tarzida yozma manbalar orqali yetib kelgan asarlardandir. Bu epik asar garchi kitobiy afsona holida bo‘lsa-da, qadimda epik kuychilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylangan doston bo‘lganligi sababli folklorshunoslikda qahramonlik eposining arxaik namunasi sifatida e’tirof etiladi[1.5.].

“Jumo‘ng” dostoni qahramonlik, vatanparvarlik va yurtsevarlik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan yirik epik asardir. “Jumo‘ng” dostoni yaratilish davriga ko‘ra qadimiy

bo‘lganligi sababli unda arxaik epik qatlam yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Jumo‘ng (Do‘ngmyongvan) Koreya millatining qadimiy tarixida eng katta hisoblangan Go‘guryo imperiyasini bunyod etgan shaxs sifatida e’tirof etilganligi sababli bu epik asar ko‘p olimlarning e’tiborini o‘ziga tortgan.

Koreyalik folklorshunos olima Ingyong O. tomonidan koreys xalq eposi “Jumo‘ng” doston o‘zbek xalq qahramonlik eposining klassik namunasi “Alpomish” dostoni bilan ilk bor qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, u o‘z tadqiqotida jahon xalqlari badiiy madaniyati kontekstida muhim o‘rin tutgan bu muhtasham eposlarning shakllanishiga asos bo‘lgan syujet o‘zagi – prosyujet yadrosini aniqlab bergan.

Ingyong O. o‘z tadqiqotida “Alpomish” va “Jumo‘ng” dostonlari syujet qurilishidagi qahramonlik bilan bog‘liq asosiy motivlar tizimini qiyosiy tahlil qilish o‘zbek va koreys folklorining epik janrlari namunalarida ishtirok etadigan g‘ayrioddiy tug‘ilish, ism qo‘yish, sinov, kurash, yoy otish kabi an’anaviy motivlarning tarixiy-genetik ildizlari hamda manbalari mushtarakligini ko‘rsatib bergan. Shu bilan birga olima o‘zbek mifologiyasidagi olamning uch qismdan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlar, ya’ni uch olam (ko‘k, yer usti va yer osti) bilan bog‘liq kosmogonik tasavvurlar ustuvor ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu mifopoetik talqin Koreya badiiy madaniyatining asosini tashkil etuvchi “chonjiyn” falsafasi bilan o‘zaro uyg‘un jihatlarga egaligi ularning genetik jihatdan aloqadorligini ko‘rsatadi [2].

Hikoya qilinishicha, Go‘guryo Buyodan kelgan. Go‘guryoning asoschisi Jumo‘ng, uning onasi – Xabekning qizi bo‘lib, u o‘z xonasidan chiqmasdan yashar ekan. Lekin kunlardan bir kuni uning xonasiga quyosh nuri tushib, Jumo‘ngning onasi homilador bo‘lib qolibdi. Oradan biroz vaqt o‘tib, Xabekning qizi bitta tuxum tug‘ibdi va bu tuxum juda katta bo‘lgan emish. Qirol qizi tuxum tuqqanini ko‘rib, g‘azablanibdi va tuxumni itlarga tashlashni buyuribdi, lekin itlar uni yemabdi. Qirol tuxumni cho‘chqalarga tashlabdi, lekin ular ham tuxumni tegishmabdi. Ot va sigirlar, qushlar ham uni himoya qilibdi. Qirol shuni ko‘rib, tuxumni onasiga yuboribdi. Onasi uni issiq joyida saqlab, vaqt o‘tib tuxum ichidan chiroyli yigitcha chiqibdi. Uning ismi Jumo‘ng qo‘yilibdi. Jumo‘ng nayza va kamalakni juda ham yaxshi ishlatadigan bo‘lib o‘sibdi. Qirol Jumo‘ngni otxonaga yuboribdi va otlarga qarashni buyuribdi. Jumo‘ng otlarga qarab, ularga yem berib, o‘rganib ketibdi. Bir kuni qirol unga kuchi qolmagan otni sovg‘a qilibdi.

Qirol Jumo‘ngni yaxshi ko‘rar ekan, shu tufayli ham qirolning vazirlari Jumo‘ngni yomon ko‘rib, uni o‘ldirmoqchi bo‘libdilar. Jumo‘ngning onasi buni eshitib, o‘g‘liga xabar beribdi. Jumo‘ng o‘z otini minib poytaxtdan qochib ketibdi. Qirol uni ushlash uchun odamlarini yuboribdi. Ular Jumo‘ngning iziga tushibdilar. Jumo‘ngning yo‘li odam ham, hayvon ham o‘tolmaydigan bir daryoga tushibdi. “Men Quyoshning o‘g‘li, Xabekning nevarasi Jumo‘ng, bu daryoni qanday qilib o‘ta olaman?” – deb savol beribdi Jumo‘ng. Baliqlar va toshbaqalar uning so‘zini eshitib, suvdan chiqib, o‘z tanasi bilan unga ko‘prik yasab berishibdi. Shunday qilib Jumo‘ng o‘limdan qutulib qolibdi. Shundan so‘ng Jumo‘ng uch odamni uchratib, ularga «Mening ismim Go‘guryo» deb aytibdi. Ular bilan birgalikda safarini davom ettirib Buyoga kelibdi va shu yerda yashay boshlabdi. Jumo‘ngning xotini esa, eri davlatdan qochgandan so‘ng o‘g‘il tug‘ib, uning ismini Yoxe qo‘yibdi. Yoxe doimo otasining oldiga borib, u bilan birga yashashni istar ekan. Shuning uchun bir kuni onasi

bilan birga Jumo‘ngning oldiga kelibdi. Jumo‘ng uning ismini Yodal deb qo‘yibdi. Yodal otasidan keyin Go‘guryoning qiroli bo‘libdi».

VI asrda yozilgan “Viso” yozma yodgorligi materiallari Go‘guryoning davlat shaklida bunyod etilishi haqidagi afsonaviy ma’lumotlarning qahramonlik eposi shaklida ifodalangan namunalari bo‘lib, bu manba Jumo‘ng to‘g‘risidagi arxaik eposning eng qadimiysi va nisbatan tugal, to‘liq namunasi hisoblanadi [2.23.].

Ьngyong O. Jumongning g‘ayritabiiy tug‘ilishi bilan bog‘liq quyidagi mulohazalarni ham keltiradi “Samguksagi”da naql qilingan bu hikoya mohiyatan afsonadan ko‘ra tarixiy ma’lumotga ko‘proq o‘xshab ketsa-da, uning syujeti asosida Jumo‘ng to‘g‘risidagi qadimgi arxaik eposning izlari saqlanganligi aniq ko‘zga tashlanib turadi. Xususan, Jumo‘ngning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, ya’ni uning onasi Yuxva quyosh nuridan homilador bo‘lishi motivi qahramonning mifologik tabiatini belgilaydi.” [2.25.].

Yuqorida keltirilgan qahramonning tug‘ilishi bilan bog‘liq afsonalarda “Yux va quyosh nuridan homilador bo‘lib o‘g‘il tug‘di” deb tasvirlanishi an’anaviy eposga xos g‘ayritabiiy tug‘ilish motivining talqinidir.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonlarini o‘rganar ekanmiz, bu doston variantlarida qahramonning tug‘ilishi ikki xil talqinda uchraydi. Birida qahramon real ota-onadan tug‘ilsa, ikkinchi talqinga ko‘ra qahramonni bokira qiz ilohiy homila natijasida dunyoga keltiradi.

Folklorshunos olim Sh.Turdimov “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining mavjud o‘zbek variantlarini tadqiq etib, onaning homila topish motivini quyidagi ko‘rinishda umumlashtirib tasnif etish mumkin deb ko‘rsatadi:

1. Homila tabiiy, qahramonning tug‘ilishi g‘ayritabiiy variantlar.
2. Homila ham, qahramonning tug‘ilishi ham g‘ayritabiiy ifodalangan variantlar.

“Arxaik syujet zamiridagi mif talqinida Go‘ro‘g‘li – Quyosh o‘g‘li bir yillik mavsumiy muddatning uch oyi davomida yer qa’rida yetilib, ko‘klam bilan birga tug‘ilib, uch oy (ko‘klam fasli) tetapoya bo‘lib, uch oy (yoz) barobarida voyaga yetib, ulg‘ayib (qayta homila topib), navbatdagi uch oy (kuz)da kamolga erishib, qartayib, homilasi olti oylik bo‘lgach, qayta o‘z makoni – g‘orga (qish qo‘yniga) kirib uyquga ketadi, uch oy (qish) davomida o‘lik tanada yetilgan homila qish nihoyasida qaytadan tug‘iladi, deb tushunilgan. Go‘ro‘g‘lining g‘ayriqutbi – “O‘zga olam – zulmat dunyosining o‘g‘li” esa kuz kirishi bilan tug‘ilib, uch oy qish to‘liq yetilib, ko‘klam adog‘ida o‘z makoniga kirib, kuzda qayta tug‘iladi, deb tasavvur qilingan. Kuzu qish batnida yoz yetilib dunyoga keladi va ko‘klamu yoz ichida qish yetilib qayta tug‘iladi, degan tushuncha qat’iy amalda bo‘lgan. Kosmosdan xaos, xaosdan kosmos paydo bo‘lishi haqidagi universal model hamma hodisada birdek amal qiladi, deb anglangan, talqin etilgan...

Nafaqat bosh qahramon va epik homiylar, balki dostondagi qahramon g‘ayriqutbi, raqibi, ko‘makchilari, epik ot, yor obrazlarining tadqiqi “Go‘ro‘g‘li” eposining ko‘hna ildizlarga ega ekanligini, doston yadrosining quyosh turkum miflari hamda marosimlariga va animistik tasavvurlarga bog‘liq ravishda eradan avvalgi ming yilliklarda paydo bo‘lganligini asoslaydi...

Doston syujeti asosini tutib turuvchi mifologik tizim mantig‘i qahramon otasini quyosh bilan bog‘liq talqin etgan bo‘lsa, onasini oy deb tasavvur qilgan. Ushbu tasavvur

avvalo qahramon onasining ismi Bibi Hilol bilan aloqador. Epik qahramon – otasining Xizr, ya'ni Quyosh erani, onasi Bibi Hilolning oy ma'budasi bo'lishi dunyo xalqlari folklori va mifologiyasida o'z parallellarini topadi. Demak: Quyosh va Oy ma'budlarining farzandi qorong'i yurtdan (yer ostidan) yorug'lik (yer usti) yurtiga chiqadi" [3.6.].

Jumo'ngning ham Go'ro'g'lining ham onasi osmondan tushgan ilohiy nurdan homilador bo'lib qolishi motivi epik qahramonning dunyoga kelishi va tug'ilishi Quyosh kulti bilan bog'liq qadimgi tasavvurlarga aloqadorligining belgisidir. Nurdan tug'ilish esa uning Quyosh o'g'li – quyosh farzandi – ilohiy homila tufayli bino bo'lgan g'ayrioddiy mavjudot ekanligiga dalildir.

Go'ro'g'li Jumo'ng kabi tuxumdan tug'ilmaydi. U oddiy inson kabi o'lik onadan go'rda tug'iladi. "Ko'hna mif talqinida ko'klam-yoz timsoli bo'lmish Quyosh o'g'li - Go'ro'g'li qish batnida yoki yer ostida (o'zga dunyoda) tug'ilib yer yuziga chiqqan. Aniqrog'i, toq tubidan qaynab chiqayotgan musaffo suvda cho'milayotgan bokira qiz quyosh nuridan (quyosh tangrisi timsoli – Qidirning nazaridan) homila topgan. Homila olti oylik vaqti yer osti – o'zga yurt tangrisi qizni o'g'irlab ketgan" [4.169].

"Jumo'ng dastlab tuxum shaklida tug'iladi, ammo qirol Gimva Yuxvaning tuxum holidagi homilasini tashlab yuboradi. Tuxumning yerga tashlanishi uning (ya'ni qahramonning) uzoq vaqt bo'lmasada, ma'lum muddat «ramziy o'lim» holatida bo'lganligini bildiradi. Lekin jonivorlar tomonidan himoya qilingan tuxumning yana Yuxvaga qaytarilishi homilaning qayta dunyoga kelishi, ya'ni ikkinchi tug'ilishni anglatadi. Tuxumning Ona (tabiat) vujudidan tushishi (mifologik qahramon ibtidosi) → tashlab yuborilishi → hayvonlar himoyasi → saroyga qaytarilishi (Jumo'ngning tug'ilishi) yil fasllarining doimiy o'zgarishi hamda yangi yilning kelishi haqidagi qadimgi kalendar miflarni ifodalaydi. Jumo'ngning tug'ilishi shuncha bosqichlardan iborat jarayon sifatida tasvirlanishi uning ilohiy qobiliyat egasi ekanligini asoslash uchun zarur bosqichlardir. [1.55].

Jumo'ngning ham Go'ro'g'lining ham kelajakda qirol bo'lishi va alohida davlatga asos solishi uchun uning hayoti davomida bir necha xil sinov-initsiatsiya jarayonlaridan o'tishi talab qilinadi. Qahramonning tug'ilishidagi g'ayritabiiy talqinlarning mifologik tabiatga egaligi ham ana shunday initsiatsiya ifodasidir. Jo'mo'ng Go'gryo davlatiga, Go'ro'g'li esa Chambilga asos soldi. Har ikkisi ham homiylar tomonidan tanlangan qahramonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ingyong O. "Alpomish" va "Jumo'ng" dostonlarining qiyosiy tipologik tahlili. Monografiya. Toshkent, 2013.

2. Ingyong O. "Alpomish" va "Jumo'ng" dostonlarining qiyosiy tipologiyasi. Fil.f.d.i.d.olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2014.

3. Turdimov Sh. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoning yetakchi variantlari haqida. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. J.21.– G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

4. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. / Ma'sul muharrir: T.Mirzaev. – Toshkent. Fan, 2011. – 240 b.